



SAMARQAND VILOYATI ISHTIXON TUMAN HOKIMI F A R M O Y I S H I

2022 - yil 15 - fevral

26-7-95-F/22

Ishtixon tuman hokimligi

Ishtixon tuman mahalliy budjetining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan,

1. Tuman hokimligiga oq qog'oz uchun 5,4 (besh million to'rt yuz ming) mln.so'm, devonxona mollari uchun 4,0 (to'rt) mln so'm, xo'jalik mollari uchun uchun 4,0 (to'rt) mln so'm mablag' tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligining davlat raqami DAV 077 bo'lgan xizmat avtomashinasini ta'mirlash xarajatlari uchun 4,5 (to'rt million besh yuz ming) mln so'm tuman hokimligiga ajratilsin.

3. Tumandagi obod qishloq dasturiga tushgan qishloqlarda ta'mirlash ishlariga ketgan bo'yoq xarajati uchun 50,0 (ellik million) mln so'm mablag' tuman hokimligiga ajratilsin.

4. Tuman mahallalardagi yoshlar yetakchilariga mebel jihozlari 78,5 (yetmish sakkiz million besh yuz ming) mln so'm mablag' tuman mahalla va oila bo'limiga ajratilsin.

5. "Bog'ixon" mahallasiga ta'mirlash ishlariga ketadigan sement olish xarajatlari uchun 4,0 (to'rt) mln so'm mablag' tuman mahalla va oila bo'limiga ajratilsin.

6. Afg'on urushi qatnashchilariga bayram dasturxonini xarajatlari uchun 9,0 (to'qqiz) mln so'm sovg'alar olish uchun 8,4 (sakkiz million to'rt yuz ming) mln so'm va bannerlar yasatish uchun 1,0 (bir) mln so'm tuman hokimligiga ajratilsin.

7. Ishtixon tuman hokimligi Moliya bo'limi (S.Ibragimov)ga budjetga tegishli

o'zgartirish kiritish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (A.Turdiyev)ga belgilangan tartibda to'lovni amalga oshirish, tuman mahalla va oila bo'limi (A.Yangiboyev) va tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Quziyev) ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

8. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari Sh.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Ishtixon tumani hokimi



Sh.X.Negmatov